



Loyihamni nega rad qilishdi?

3-betda o'qing



Tergov jarayonida ruhiy tazyiq o'tkazishning yashirin usullari bor

6-betda o'qing

INSON va qonun

2023-YIL
6-IYUN
SESHANBA

№ 22 (1382)

www.hudud24.uz

@adolat_nashrlari



"ADOLAT"

"ADOLAT" milliy huquqiy axborot markazi nashrlariga obuna bo'ling!



"Adolat nashrlari" telegram kanalida kuzating!



www.adolatmarkazi.uz [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official) facebook.com/hudud24official/



ADLIYADA "Oila kuni"

1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni munosabati bilan Adliya vazirligida an'anaviy ochiq eshiklar kuni doirasida "Oila kuni" tadbiri o'tkazildi.

Vazirlik xodimlarining oila a'zolari, farzandlari uchun vazirlik markaziy apparati bo'ylab ekskursiya tashkil etildi. Bolajonlar ota-onalarining ish joylarida bo'lib, mehnat sharoitlari bilan yaqindan tanishib, "Adliya xodimi qanday ishlaydi?" degan savolga javob topdilar.

Shuningdek, mehmonlar "Adliya organlari tarixi" muzeyi bilan ham tanishishdi.

Tadbirda bolajonlar vazirlik rahbariyati, taniqli san'atkor va sport ustalari bilan uchrashdi. Samimiy va ko'tarinki ruhda o'tgan uchrashuvda adliya organlari faoliyati va huquqshunoslik sohasi bo'yicha ma'lumotlar berildi. Taniqli shaxslar

o'z muvaffaqiyatlari siri va hayotiy tajribalari haqida bolajonlarga so'zlab berdi. Bayram turli interaktiv o'yinlar, animatsion shoular bilan yanada boy mazmun kasb etdi.

"Oila kuni" loyihasi yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda adolat, tartib, qonun tushunchalariga yaqinlikni paydo qilish, shuningdek, huquq sohasiga qiziqish uyg'otish maqsadida tashkil etildi.

Mazkur tadbir nafaqat vazirlikda, balki vazirlikning barcha muassasalari va hududiy idoralarida ham ko'tarinkilik bilan o'tkazildi.



2 JARAYON

O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasida ham fuqarolarning ekologik huquqlari belgilandi. Uning 49-moddasiga ko'ra, har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega. Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o'tkaziladi. Davlat barqaror rivojlanish prinsipi-ga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Davlat Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko'radi.

Fuqarolar ekologik huquqlarining asosiy qonunda mustahkamlanishi sohaning naqadar zarur ekanligidan dalolat beradi. Fuqarolarga qulay atrof-muhit yaratish, qayta tiklanuvchi energiyalardan keng foydalanish hamda kelajak avlod uchun toza ekologik maydonni qoldirish maqsadida izchil islohotlar amalga oshirib borilmoqda.

IQLIM O'ZGARISHIGA TAYYOR
EMASMIZ

Butun dunyodagi iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammoli masalalar mamlakatimizni ham chetlab o'tayotgani yo'q. Anomal issiq yoki anomal sovuq davrida energiya manbalari-ga katta ehtiyoj sezilmoqda. Ayniqsa, o'tgan yilning yozi, joriy yilning qish faslidagi noqulay ob-havo sharoiti ko'pchilikni shoshirib qo'ydi, iqlim o'zgarishiga tayyor emasligimiz sezilib qoldi. Aholi uchun noqulayliklar tug'ildi, bu esa odamlarning hayot tarzini bir muddat o'zgartirdi. Anomal sovuq sabab davlat darajasida chora-tadbirlar belgilandi.

Ekologik vaziyat, albatta, amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligiga, xususan, iqtisodiy o'sish va kambag'allikni qisqartirish, ekologik va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib, mamlakatimizda iqlim o'zgarishi ta'sirini kamaytirish va unga moslashish, "yashil" iqtisodiyotga o'tish choralari jadallashtirish bo'yicha zarur choralar ko'rilmoqda. "Yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sish modelini targ'ib qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish maqsadida 2023-yil 12-mayda "Yashil energiya" sertifikatlari tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorga ko'ra, elektr energiyasining qayta tiklanuvchi manbalardan foydalangan holda ishlab

EKOLOGIK muammolar nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo bo'ylab insoniyat oldida turgan eng yirik muammolardan biri hisoblanadi. Shu sababli, boshqa sohalar qatori ekologik barqarorlikni ta'minlash, aholining qulay tabiiy muhitga ega bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.



Tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish, yuzaga kelayotgan ekologik muammolarning oldini olish va ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish masalalariga ham jiddiy e'tibor berilmoqda.

"YASHIL ENERGETIKA"

*qulay ekologik muhitni
ta'minlaydi*

chiqarilganini tasdiqlovchi "yashil energiya" sertifikatlari tizimini bosqichma-bosqich joriy etish vazifasi belgilandi. Shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslarga mazkur sohada bir qator yengilliklar nazarda tutildi. Jumladan, 2023-yil 1-iyuldan boshlab yuridik va jismoniy shaxslarga vakolatli organlar tomonidan belgilanadigan, energiya sarfi hajmidagi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanigan holda ishlab chiqarilgan energiya ulushini oshirish bo'yicha talablarni bajarishda yetishmagan energiya ulushini tegishli miqdordagi "yashil energiya" sertifikatlari hisobidan qoplash huquqi berildi. Bundan tashqari, qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanishga asoslangan generatsiya obyektlarining "yashil energiya" sertifikatlari savdosidan tushgan daromadlari foyda solig'idan ozod etilishi belgilandi.

Mazkur qaror bilan "yashil energiya" sertifikatlari tizimini yuritish, xususan, generatsiya obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish, "yashil energiya" sertifikatlarini chiqarish, generatsiya obyektlariga berish va ularning harakati hisobini yuritish bo'yicha mas'ul organ iqtisodiyot va moliya vazirligi hisoblanishi belgilandi.

Mamlakatimizda bugungi kunda "yashil energetika"ni rivojlantirishga qaratilgan qator davlat dasturlari asosida amalga oshirilgan Navoiy viloyatida ishga tushirilgan, quvvati 100 megavatt bo'lgan zamonaviy quyosh fotoelektr stansiyasi faoliyat yuritmoqda. Markaziy Osiyoda yagona hisoblangan ushbu stansiya yiliga 252 million kilovatt soat toza elektr energiyasi ishlab chiqarishga qodir bo'lib, natijada 80 million kub metr tabiiy gazni tejash, atrof-muhitga 160 ming tonna zararli issiqxona gazi tarqatishining oldini olish imkonini beradi.


8 BAROBAR KO'P ELEKTR
OLISHIMIZ MUMKIN

Quyosh energiyasi butun dunyoda foydalanilayotgan "yashil energiya"ning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda quyosh energiyasidan foydalanish bo'yicha Germaniya, Ispaniya, Yaponiya yetak-

chilik qilmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Avstriyada 0,6 kvadrat metr, Isroilda esa 0,57 kvadrat metr quyosh paneli to'g'ri keladi. Yurtimizda bir yilda quyoshli kunlar 300-320 kunni tashkil etadi. Ya'ni, o'rtacha 3000-3200 soatgacha quyosh energiyasidan foydalanish imkoniyati mavjud. Olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar xulosalariga ko'ra, O'zbekistonda bir yilda yerning bir kvadrat metr sirtiga o'rtacha 1600 kilovatt soat quyosh energiyasi tushadi. Bu ko'rsatkich Yevropa mamlakatlari-ga qaraganda ancha ko'p hisoblanadi. Xususan, Rossiya Federatsiyasining Yekaterinburg shahrida 1044 kilovatt soatni tashkil etadi. Agar zamonaviy fotoelektr stansiyalar orqali ushbu quyosh energiyasining 15 foizi elektr energiyasiga aylantirilsa, mamlakatimizda bir kvadrat metr quyosh paneli orqali yiliga 200-240 kilovatt soat elektr energiyasini ishlab chiqarish mumkin.

O'zbekiston iqlim sharoitida yozgi davrda 1 megavatt elektr quvvati olish uchun 6 ming kvadrat metr quyosh panellarini o'rnatish talab qilinsa, Yekaterinburg shahri sharoitida esa 12 ming kvadrat metr yuzali quyosh panellari kerak bo'ladi. Demak, yurtimizning janubiy hududida quyosh fotoelektr stansiyasi qurilishi uchun xarajat ham ikki barobargacha kam bo'ladi. Umuman, barcha turdagi quyosh qurilmalari mamlakatimiz hududida yuqori samara bilan ishlaydi.

Mutaxassislarning fikricha, yurtimizda ana shunday noyob quyosh fotoelektr stansiyalarini qurish hisobiga jami 600 milliard kilovatt soat elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyati mavjud. Bu mamlakatimizda jami energiyaga bo'lgan talabdan 8 barobar ko'p degani.



Mamlakat energiya xavfsizligini, energiya samaradorligini oshirish va iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror energiya bilan ta'minlash uchun jadal sa'y-harakatlar olib borilmoqda. Bu esa "yashil energetika" siyosatini amalga oshirish, ya'ni qayta tiklanadigan energiya manbalaridan, jumladan, quyosh, shamol va suv energiyasidan foydalanish mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini yuksaltirish, qayta tiklanmaydigan energoresurslarni tejash, eng muhimi, fuqarolar uchun qulay ekologik muhitni yaratishda muhim omil hisoblanadi.

Adham AHROROV,
Toshkent davlat yuridik universiteti
katta o'qituvchisi

ISH STAJIM HISOBGA OLINMAYDIMI?



– **MAKTABDA o'qituvchi bo'lib ishlayman. Ish stajim 25 yildan ortiq. Pensiya chiqishimga 3 yil qolgan. Malaka toifamning muddati aprel oyida tugadi. Menga may oyidan boshlab toifasiz xodim sifatida ish haqi to'lanishini aytishdi. Shu qonundan to'g'rimi? Ko'p yillik ish stajim ham hisobga olinmaydimi?**

– Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi qarori bilan tasdiqlangan "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 6-bandida ish staji 25 yildan ortiq hamda pensiya chiqishiga 5 yildan kam qolgan pedagoglar majburiy attestatsiyaga jalb qilinmasligi belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, mazkur Nizomning 7-bandida "Navbatdagi majburiy attestatsiyaga jalb etilmaydigan pedagog kadrlarning amaldagi malaka toifalari (lavozimlari) saqlanib qoladi hamda ularga ta'lim tashkilotlarida ishlagan davrida mazkur malaka toifasi (lavozimi) bo'yicha haq to'lanadi" deb belgilab qo'yilgan.

Shunga asosan sizning malaka toifangizning muddati o'tib ketgan bo'lsa ham, toifangiz saqlanib qolinganda ish haqi to'lanishi lozim bo'ladi. Agar ish beruvchi toifa saqlangan holatda ish haqi to'lashdan bosh tortsa, davlat mehnat inspeksiyasiga yoki tuman adliya bo'limiga murojaat qilishingiz lozim. Ular tekshirib, ish haqini toifa bo'yicha to'lashni so'rab ish beruvchiga taqdimnoma bilan chiqishadi.



Savollarga "Madad" NNT
yetakchi mutaxassisi
Shaxzod MAJIDOV
javob berdi

LOYIHAMNI NEGA RAD QILISHDI?



– **Men yosh tadbirkor sifatida tadbirkorlik loyihama asosida imtiyozli kredit olmoqchi edim. Lekin kredit ajratilishi rad etildi. Aytinch, menga qaysi holatlarda kredit ajratilmasligi mumkin?**

– Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-dekabrda "Yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish va ularning biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, kreditlar avval olingan kreditlar yoki boshqa har qanday qarzlarni qaytarishga, alkogol va tamaki mahsulotlarini, shuningdek, chilim va elektron sigaretalarni ishlab chiqarishga, savdo-vositachilikni amalga oshirishga, umumiy ovqatlanish tashkilotlarining aylanma mablag'larini shakllantirishga, ta'mirlash-qurilish ishlariga, shu jumladan savdo obyektlari va umumiy ovqatlanish obyektlarini tashkil etishga, ishlab chiqarish maqsadlaridan tashqari xarajatlarni, shu jumladan ma'muriy xarajatlarni to'lash va xizmat avtotransport vositasini sotib olishga, tirajli, bir lahzali va raqamli lotereyalarni tashkil etishga, shuningdek, ushbu maqsadlar uchun uskunalar xarid qilish maqsadlari uchun ajratilmaydi. Yuqoridagi asoslarga ko'ra Sizning loyihangiz rad qilingan bo'lishi mumkin.

IT SOHASI BO'YICHA DAVLAT TOMONIDAN SUBSIDIYA



– **Qizimning axborot texnologiyalari sohasiga qiziqishi yuqori. Farzandimga bugungi kunda IT sohasi bo'yicha davlat tomonidan subsidiya ajratilish tartibi haqida ma'lumot bersangiz.**

– Mazkur subsidiya imtiyozidan foydalanish uchun sizning farzandingiz "Yoshlar daftari"da ro'yxatda turishi lozim. E'tibor qarating! Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi "Yoshlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan nizomning 8-bandiga ko'ra, yoshlarga zamonaviy kasblarni egallashi, axborot texnologiyalarini o'rganishi va ularni xorijiy tillarga o'qitish bo'yicha olti oygacha muddatli o'quv kurslar uchun har oyda BHMning 4 baravarigacha miqdorda subsidiya ajratiladi.



KONTRAKT TO'LAYMANMI?

– **Samarqand viloyatida texnikumda davlat granti asosida tahsil olaman. Oilaviy sababga ko'ra o'qishimni Qashqadaryo viloyatiga ko'chirmoqchiman. Agar o'qishimni boshqa viloyatdagi o'quv yurtiga ko'chirsam, to'lov kontrakt asosida o'qiymanmi?**

– Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim to'g'risida"gi Nizomga ko'ra, o'qishni ko'chirish yoki qayta tiklash qoidaga ko'ra, yozgi ta'til davrida, tegishli

kurs (semestr)da o'quv mashg'ulotlari boshlanishiga qadar amalga oshiriladi. O'qishni ko'chirish yoki qayta tiklash o'quvchining (o'quvchi voyaga yetmagan bo'lsa, uning ota-onasidan birining yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning) arizasi va professional ta'lim muassasi tomonidan berilgan akademik ma'lumotnoma, o'quvchining kursdan kursga o'tganligi to'g'risidagi buyruqdan ko'chirma, o'quvchining pasporti nusxasi, voyaga yetmagan sababli pasporti bo'lmaganida tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma hamda ota-onasi (yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar)ning doimiy yashash joyi ko'rsatilgan pasporti nusxasidan iborat hujjatlar yig'majilida asosida ko'rib chiqiladi.

Mazkur Nizomning 51-bandiga ko'ra, davlat granti asosida ta'lim olayotgan o'quvchilarga o'qishni ko'chirish yoki qayta tiklashda davlat granti asosida ta'limni davom ettirish imkoniyati beriladi. Demak, o'qishingizni ko'chirganingizda ta'limni bema'lol davlat granti asosida davom ettirishingiz mumkin.

HAYDOVCHILIK GUVOHNOMASI OLMOQCHIMAN



– **Haydovchilik guvohnomasi olmoqchi edim. Aytinch, haydovchilik guvohnomasini olishda to'lanadigan to'lovlar miqdori hozirgi kunda qancha?**

– Ichki ishlar vazirining 2303-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Nizomga ko'ra, nazariy imtihon topshirish BHM 1 baravarining 10 foizi miqdorida to'lov, har yiqilgan nazariy imtihonni qayta topshirish uchun BHM 1 baravarining 15 foizi miqdorida to'lov qilinadi. Shuningdek, avtomototransport vositasini amaliy boshqarish imtihoni uchun BHM 1 baravarining 10 foizi miqdorida, har bir yiqilgan avtomototransport vositasini amaliy boshqarish imtihoni uchun BHM 1 baravarining 15 foizi miqdorida to'lov amalga oshiriladi. Shuningdek, haydovchilik guvohnomasini berish uchun BHM 1 baravarining 70 foizi miqdorida to'lov qilinadi.

4 MUROJAATLAR ADLIYA NIGOHIDA

QORAQALPOG'ISTON

Fuqaro N.J.ning ishdan bo'shash nafaqasi yoki ogohlantirish muddatiga almashtirilgan pullik kompensatsiya puli berilmagani bo'yicha qilgan murojaati Bo'zatov tuman adliya bo'limi tomonidan tegishli tartibda o'rganib chiqildi.

HISOBCHI
JARIMAGA TORTILDI

Fuqaro 2023-yil 28-fevralga qadar tuman Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi, mahallalar drayverlarini aniqlash va tadbirkorlikni rivojlantirish sektorida ishlab kelgan.

Bo'zatov tuman hokimligi tomonidan u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinishi to'g'risida ogohlantirish berilgan va ogohlantirish muddati o'tmasdan pullik kompensatsiyaga almashtirilgan.

Aniqlanishicha, Bo'zatov tuman hokimining 2023-yil 27-fevraldagi buyrug'i bilan fuqaro N.J. bilan tuzilgan mehnat shartnomasi 2023-yil 28-fevraldan e'tiboran bekor qilingan va ogohlantirish muddatiga mos ravishda pullik kompensatsiya va Mehnat kodeksining 109-moddasiga asosan o'rta o'ylash haqi miqdorida ishdan bo'shatish nafaqasi to'lanishi belgilangan bo'lishiga qaramasdan, hokimlik hisobchisi tomonidan 2023-yil 11-aprelda mart oyi uchun 3 million 290 ming 665 so'm kompensatsiya puli to'langan, ikkinchi oy uchun kompensatsiya puli hamda ishdan bo'shatish nafaqalari esa to'lanmagan.

Ushbu holatda Mehnat kodeksining 67-moddasi – "Mehnati shartnomasi alohida holatlarga ko'ra bekor etilganda moddiy yordam berish uchun belgilangan qo'shimcha vakolatlar", 109-moddasi – "Ishdan bo'shatish nafaqasi" va 110-moddasi – "Mehnati shartnomasi bekor qilindagina xodimga tegishli ish haqini ish beruvchi tomonidan to'lash muddatlari", shuningdek, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining 2021-yil 4-martdagi buyrug'i talablari buzilgani aniqlanib, tuman hokimligi hisobchisiga Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 49-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni sodir etganligi bo'yicha Kambag'allikni qisqartirish va bandlik tuman bo'limiga ma'muriy javobgarlik masalasini ko'rib chiqish haqida kiritilgan taklifga ko'ra hokimlik hisobchisiga bazaviy hisoblash miqdorining 5 barobari miqdorida jarima jazosi tayinlandi. Tuman hokimligiga kiritilgan taqdimnomaga asosan fuqaroga 5 million 162 ming 195 so'm ishdan bo'shatish nafaqasi hamda kompensatsiya puli to'lanishi ta'minlandi.

Nesip KALIMBETOV,
Bo'zatov tuman adliya bo'limi boshlig'i

NAMANGAN

TADBIRKORNING
PULI UNDIRILDI

Chustlik Erkinjon Isoqov tumandagi faol tadbirkorlardan. U hozirda 70 nafar doimiy, 50 nafar mavsumiy ishchilarni ish bilan ta'minlagan ishbilarmonlardan. Tadbirkorlik faoliyati davomida Chust tuman adliya bo'limining huquqiy maslahat va ko'maklaridan foydalanadi.

E. Isoqovning tuman adliya bo'limiga bu galgi murojaatida pudrat shartnomasiga asosan taraflar o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshirgan ishlar uchun tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan to'lab berilmagan 541 million 16 ming so'm mablag'ni undirib berishda amaliy yordam so'ragan.

Murojaat yuzasidan o'rganish natijalariga ko'ra, tuman adliya bo'limi tomonidan tadbirkorning manfaatini ko'zlab, Chust tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizasi kiritildi.

Sudda da'vo qanoatlantirilib, tadbirkorning cho'zilgan qarzi undirib beriladigan bo'ldi.

Azamat JO'RAYEV,
Chust tuman adliya bo'limi boshlig'i

TOSHKENT

Uchtepa tumanidagi 203-sonli umumta'lim maktabida musiqa fanidan dars beruvchi fuqaro Q.Y. 2022-yil dekabr oyidan qo'shimcha 0,5 stavka o'rindoshlik asosida duradgorchilik lavozimida ishlagani, ammo unga ushbu kasb lavozimida ishlagani uchun qo'shimcha ish haqi to'lanmaganidan norozi bo'lib, tuman adliya bo'limiga murojaat qilgan.

DURADGORNING
MUROJAATI
O'RGANILDI

O'rganish jarayonida xodimga duradgorlik lavozimi uchun tegishli ish haqi to'lanmaganini aniqlandi. Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 18-oktabrdagi qarori bilan tasdiqlangan "O'rindoshlik asosida hamda bir necha kasbda va lavozimda ishlash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 25-bandiga ko'ra, budget tashkilotlarida bir necha kasb



va lavozimda ishlaganlik, xizmat ko'rsatish zinasini kengaytirganlik, ishlar hajmini ko'paytirganlik uchun qo'shimcha haq to'lash miqdori bir necha kasb va lavozimda ishlamayotgan lavozim bo'yicha maoshning (tarif stavkasining) 50 foizidan ortiq bo'lishi mumkin emas va budget tashkilotlarining mehnatga haq to'lash fondida nazarda tutilgan mablag'lar doirasida to'lanishi belgilangan.

Shunga ko'ra, tuman adliya bo'limi tomonidan tuman xalq ta'limi bo'limiga aniqlangan qonunbuzilish holatlarini bartaraf etish yuzasidan taqdimnoma kiritilib, xodimga tegishli ish haqi to'lab berildi.

Ashraf ABDURAHMONOV,
Uchtepa tuman adliya bo'limi bosh maslahatchisi

TOSHKENT

DA'VO
qanoatlantirildi

Fuqaro R. Arifullinaning Moliya vazirligi huzuridagi Budgetdan tashqari pensiya jamg'armasi Mirzo Ulug'bek tuman bo'limi mansabdor shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlaridan norozi bo'lib tuman adliya bo'limiga qilgan murojaati o'rganib chiqildi.

Aniqlanishicha, Budgetdan tashqari pensiya jamg'armasi Mirzo Ulug'bek tuman bo'limining 2013-yil 6-sentabrdagi komissiya qarorining mehnat stajini hisoblamaslikka oid qismini haqiqiy emas, deb topish maqsadida va R. Arifullinaning manfaatida Toshkent tumanlararo ma'muriy sudiga da'vo arizasi kiritildi. Da'vo ariza sudning 2023-yil 10-apreldagi hal qiluv qarori bilan qanoatlantirilib, Pensiya jamg'armasi M. Ulug'bek tuman bo'limi zimmasiga pensiya tayinlashda R. Arifullinaning 1992-yil 4-martdan 1999-yil 15-martga qadar "Agro-NT" firmasida ishlagan davrlarini umumiy mehnat stajiga qo'shib hisoblash majburiyati yuklatildi.

Oxunjon ESHONQULOV,
Mirzo Ulug'bek tuman adliya bo'limi bosh maslahatchisi

Jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lgan oilaning buzilishi bilan jamiyatning ma'lum bir mezonlari ham buziladi. Demograflarning hisob-kitobiga ko'ra, so'nggi yillarda mamlakatimizda bir vaqtning o'zida nikohlarning kamayishi bilan ajralishlar soni oshib bormoqda. Qonuniy bo'lmagan tug'ilishlar, to'liq bo'lmagan oilalar soni ko'paymoqda.



MAJBURIY BO'LISHI KERAK

Amaliyotdagi statistik ma'lumotlar mulohazaga kirishishni talab qiladigan darajada o'ta achinarlidir. Birgina Sirdaryo tumani miqyosida har oyda o'rtacha 26-27 ta oila ajralish uchun tegishli idoralarga ariza bilan murojaat qilgan. Ular ajrimga sabab tariqasida turli xil holatlarni sabab qilib ko'rsatishmoqda. Masalan, iqtisodiy, maishiy, ijtimoiy va hokazo holatlar.

Oilalarning buzilish sabablari o'rganib chiqilganda, 28 ta holatda farzandsizlik, 7 tasida xiyonat, 34 tasida uzoq vaqt birga yashamaslik, 119 tasida oilaviy kelishmovchiliklar ajrimga sabab bo'lganligi qayd etilgan. Boshqa holatlarda esa yoshlarimizning oila qurishga tayyor emasligi, sog'lig'iga e'tiborsizlik, yigitlarning oilani boshqarish, ro'zg'orni moddiy ta'minlash, farzandlarni ma'nan hamda jismonan sog'lom qilib tarbiyalashni o'z burchlari deb bilmassliklari, qizlarning esa uy bekasi, onalik vazifasini tushunmasligi, aksariyat hollarda esa, oilaviy ajrimlar qaynona va kelin o'rtasidagi mojarolar tufayli yuzaga kelayotgani ma'lum bo'ldi.

Amaldagi Oila kodeksining 30-moddasi "Nikoh shartnomasi tuzish" deb atalib, birinchi qismi quyidagicha belgilangan:

Nikoh shartnomasi nikoh davlat ro'yxatiga olinguniga qadar ham, shuningdek nikoh davrida ham tuzilishi mumkin".

Taklifim shundan iboratki:

Kodeksning 30-moddasi birinchi qismi quyidagicha bayon etilishi lozim: "Nikoh shartnomasi nikoh dav-

lat ro'yxatiga olinguniga qadar tuzilishi majburiydir. Nikoh shartnomasi mavjud bo'lmay turib nikohni davlat ro'yxatidan o'tkazish taqiqlanadi."

Nikoh shartnomasini majburiy qilib belgilashdan maqsad – kelajakda oilaviy munosabatlarda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan farzandlar, uy-joy masalasi, mulk, huquq va erkinliklar, burch va majburiyatlarni bajarishdagi, oila muqaddasligini saqlab qolishdagi salbiy holatlarning oldini olish hisoblanadi.

Nikoh shartnomasida oilaviy munosabatlarga taalluqli bo'lgan barcha shartlar: farzand tug'ilishi, tarbiyasi, farzandsizlik, oila ta'minoti, uy-joy ta'minoti, hatto oilaga xiyonat bo'lganda, qizlik maqomidan shartnoma tuzilguncha mahrum qilinganda, yashirgan kasali oshkor bo'lganda, jinsini o'zgartirib turmushga chiqqanda, mehnat layoqatini yo'qotganda, sog'lig'iga shikast yetganda, qaynona va kelin o'rtasidagi mojarolarda, mulk va maishiy muammolar bilan bog'liq boshqa holatlarda qanday yo'l tutish kerakligi, birinchi navbatda, oila muqaddasligini e'tirof etib, oilani tish-tirnog'igacha astoydil harakat qilib saqlab qolishning qonuniy choralarini ko'rilishi lozim.

Qisqa qilib aytganda, nikoh shartnomasini tuzish jamiyat, davlat, oila manfaatini uchun majburiy tarzda bo'lishi shart, deb hisoblayman.

Baxtiyor QO'SHBOQOV,

Sirdaryo tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

Farzandlikka olish to'g'risidagi ishlar Fuqarolik protsessual kodeksida nazarda tutilgan qoidalar bo'yicha alohida ish yuritish tartibida, farzandlikka oluvchilar (oluvchi), vasiylik va homiylik organlari vakillari, shuningdek, prokuror ishtirokida sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

Qonunchiligimizga muvofiq mazkur toifadagi ishlar yopiq sud majlisida ko'riladi va ishga aloqador bo'lmagan shaxslarning sud majlisiga kirishiga ruxsat berilmaydi. Sud majlisida qatnashgan shaxslar farzandlikka olish sirini qonunda belgilangan tartibga zid ravishda oshkor qilsa, jinoiy javobgarlikka tortilishlari haqida ogohlantiriladi.

KIMLAR MUSTASNO?

Oila kodeksining 152-moddasiga ko'ra, voyaga yetgan erkak yoki ayol fuqarolar farzandlikka oluvchilar bo'lishi mumkin, quyidagi shaxslar bundan mustasno:

- ✓ ota-onalik huquqidan mahrum qilingan yoki ota-onalik huquqi cheklanganlar;
- ✓ qonun bilan belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilganlar;
- ✓ asab kasalliklari yoki narkologiya muassasalarida ro'yxatda turuvchilar;
- ✓ ushbu kodeks 169-moddasining birinchi qismida ko'rsatilgan asoslar bo'yicha farzandlikka olganligi bekor qilingan sobiq farzandlikka oluvchilar;
- ✓ hayotga, sog'liqqa qarshi jinoyatlar, hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lgan jinoyatlar, jinoyat sodir etganlik uchun ilgari hukm qilinganlar;
- ✓ farzandlikka olishga monelik qiladigan kasalliklarga chalinganlar. Mazkur kasalliklarning ro'yxati Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Farzandlikka oluvchilar va farzandlikka olinuvchilar yoshidagi farq o'n besh yoshdan kam bo'lmassligi shart, bundan o'g'ay ota va o'g'ay ona yoxud farzandlikka olinuvchining yaqin qarindoshlari tomonidan farzandlikka olish hollari mustasno.

Qonunchiligimiz farzandlikka olish bo'yicha takomillashtiriladi, biroq hali-hanuz bu huquqdan foydalanishda ma'lum bir to'siqlar bor.

Masalan, sud amaliyotida shunday holatlar uchraydiki, bola bir necha yillar davomida o'sha oilada istiqomat qilib kelgan, farzandlikka olishga ariza bergan shaxslarni o'z ota-onasi sifatida biladi. Biroq, farzandlikka oluvchilar (yoki ulardan birining) qonunchilikda nazarda tutilgan asoslarda sudlanganlik holati mavjudligi sudlar tomonidan arizachilarning ushbu mazmundagi arizasini rad etishni taqozo qiladi.

Oila kodeksi 152-moddasining 6-xatboshisida "jinoyatlarni sodir etganlik uchun ilgari hukm qilingan-

Farzandli bo'lish har bir insonning huquqidir. Biroq bu huquqni farzandlikka olish orqali ro'yobga chiqarish istagini bildirgan shaxslar ko'pchilikni tashkil qiladi. Ular bu huquqlardan qonun talabi asosida, adolatlilik nuqtayi nazaridan foydalanishi lozim.

Farzandlikka olish sirini oshkor qilganlar javobgarlikka tortiladi



lar" – deb ko'rsatilgan.

Jinoyat qonunchiligida "hukm qilinganlik" – shaxsning jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan sudning hukmi chiqqanidan va hukm bo'yicha tayinlangan jazoni o'tab bo'lgunga qadar bo'lgan vaqt davridagi huquqiy holatidir. Demak, "hukm qilinganlar" jumlasini jazoni o'tagan, sudlanganlik muddati o'tgan yoki olib tashlangan shaxsga nisbatan qo'llash no'rin deb hisoblaymiz.

Oila kodeksining 152-moddasining 6-xatboshisini "sudlanganligi olib tashlangan yoki sudlanganlik muddati o'tib ketgan shaxslar bundan mustasno", – degan jumalalar bilan to'ldirish maqsadga muvofiq, – deb bilamiz.

Qonunchilikda bolaning yashashi, kamol topishi, ulg'ayishi, jamiyatda o'z o'rnini topishida to'sqinlik qiladigan jinoyat turlarini alohida ajratib ko'rsatish lozim.

Damira ALMOSOVA,

Sudyalar oliy maktabi tinglovchisi


6 HOLAT

Jumladan, Konstitutsiyaning 26-moddasida "Insonning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emas. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas. Hech kimda uning rozilgisiz tibbiy va ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emas" deb belgilangan.

Ayni paytda tergov va sud jarayonlarida bu normalarga qay darajada amal qilinayotgani, ya'ni gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchiga nisbatan ruhiy tazyiq o'tkazilayotimi, agar o'tkazilayotgan bo'lsa, buning oldini olish uchun qanday choralar ko'rilishi lozimligi asosiy masalalardan biridir. Negaki, hanuzgacha jazoni ijro etish muassasalarida, tergov izolyatorlarida, maxsus hibxonalarda qiynoqqa solish holatlari uchray turadi.

Albatta, Yangi Konstitutsiyamiz bunday salbiy holatlarga barham berishga xizmat qiladi. Buning uchun tergov izolyatorlarining so'roq xonalarini videokameralar bilan to'liq jihozlanishi, faqat ularni ishlatgan holda tergov harakatlari o'tkazilishi talab etiladi. Lekin, bugungi kunda tergov jarayonida insonlarga ruhiy tazyiq o'tkazishning statistika yuritilmaydigan boshqa yashirin usullari saqlanib qolib, ular yanada rivojlanib bormoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, guvohlar va gumon qilinuvchilarni tergovga chaqirtirib, ularni bir necha soatlab kuttirib qo'yish holatlari mavjud. Ba'zi hollarda ushbu ishtirokchilar ertalab soat 10:00 ga chaqirtiriladi va tergovchi-

O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasida fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari himoyasi yanada keng ifodasini topdi. Ya'ni, avvalgi konstitutsiyamizning "Shaxsiy huquq va erkinliklar" deb nomlangan VII-bobi 5 ta moddani o'z ichiga olgan bo'lsa, yangi tahririda esa 11 ta moddada talqin etildi.



Tergov jarayonida ruhiy tazyiq o'tkazishning yashirin usullari bor

ning "boshqa ishlari" chiqib qolgani vaj sifatida ko'rsatilib, kechqurun soat 20:00 dan so'ng tergov qilinadi. Ertalabdan kechgacha diqqinapas bo'lib bir joyda o'tirgan, ovqatsiz, suvsiz qolgan, jismonan charchagan inson faqat bir narsani – tezroq bu yerdan ketishni, shu ahvoldan qutulishni o'ylaydi. Bu esa tergovchiga juda qo'l keladi va u ishtirokchidan o'zi xohlagan ko'rsatuvlarni olishga erishadi. Bu ham ishtirokchilarga ruhiy iltirab berishning bir usulidir.

Hozirgi paytda iqtisodiyotga oid jinoyatlarda gumon qilinuvchini 48 soat ushlab turib, undan hali asoslanmagan jinoyati uchun "yetkazil-

gan moddiy zarar"ni undirish, agar bu vaqtda o'sha asossiz zarar undirilmasa, uni qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risida iltimosnoma keltirish holatlari juda ko'plab uchraydi. Bunday holatlarning aksariyatida sud iltimosnomani qanoatlantiradi. Qamoqda noma'lum muddat saqlangan shaxs "moddiy zarar"ni to'lab berish to'g'risida o'z yaqinlariga murojaat qiladi.

O'z advokatlik tajribamdan kelib chiqib aytishim mumkinki, mazkur toifadagi ishlar yuqori instansiya sudlarida ko'rilganda dalillar yetarli emasligi, isbotlash jarayoni noto'g'ri o'tkazilgani holatlari aniqlanmoqda.

Yangi Konstitutsiya qabul qilingan davrda ham bunday noqonuniy harakatlar davom etmasligiga kim kafolat beradi?

Hech kim. Fikrimizcha, masalaning faqat birgina yechimi mavjud. U ham bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslariga tegishli o'zgartishlar kiritishdir. Bu o'zgartishlar quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:

1) tergovga chaqirtirilgan protsess ishtirokchilarini o'z vaqtida qabul qilmaganlik uchun tergovga chaqirtirgan mansabdor shaxsga nisbatan javobgarlik choralari belgilash;

2) iqtisodiyot bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishda tergovchi tomonidan moddiy zararni undirish amaliyotidan umuman voz kechish;

3) iqtisodiyot bilan bog'liq jinoyatlarda ayblanuvchini qamoqqa olish to'g'risidagi iltimosnomani suda xolissona ko'rib chiqilishini ta'minlash;

4) moddiy zarar shaxsning aybi suda isbotlanganidan, keyin undirish va faqat sud hukmi orqali bu masalani hal etish amaliyotiga o'tish.

Asosiy qonunimizda insonning qadr-qimmatini kamsitishga yo'l qo'yilmasligining belgilanishi uning huquq va erkinliklari himoyasiga bo'lgan katta e'tibordir. Biroq bu normalar haqiqatda insoniy qadriyatlarini ta'minlash yo'lidagi ishlashi, adolat qaror topishi lozim. Buning uchun tegishli qonun, kodeks va boshqa normativ me'yorlar Konstitutsiyaga muvofiqlashtirilishi, har bir norma qaytadan ko'rib chiqilib, mufassal talqin etilishi shart.

Gulchehra TO'LAGANOVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti
professori, yuridik fanlar doktori

KUCHGA KIRGAN SUD HUJJATI

UNI HAM YANGI OCHILGAN HOLATLAR BO'YICHA QAYTA KO'RISH MUMKIN

Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish yuzasidan ish yuritish "Fuqarolik protsessual kodeksi" doirasida hal etiladi. Xususan, yangi ochilgan holatlar bo'yicha sud qarorlarini qayta tekshirish instituti fuqarolik protsessining mustaqil bosqichi sanalib, qonunda belgilangan asoslarga muvofiq fuqarolik ishlarining mazmuni bo'yicha (takroran) qayta ko'rish sharoitini yaratadi. Shuningdek, kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yoki oldin sud tomonidan yo'l qo'yilgan "sud xatosi"ning oldini olish, lozim bo'lganda tuzatish imkoniyatini beradi.

Yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rishning maqsadi qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni qonunda belgilangan asoslarga binoan, qayta tekshirish hamda lozim bo'lganda qayta ko'rishga qaratilgan. Bu albatta, "Fuqarolik protsessual kodeksi"da belgilangan normalar bo'lib, ma'muriy sud ishlarini yuritish instituti ham fuqarolik sudlaridan ajralib chiqqanini inobatga olsak, yuqorida qayd etilgan fikr-mulohazalar ma'muriy sud ishlarini yuritish uchun ham taalluqli sanaladi.

"Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risida"gi kodeksning 269-275-moddalarini o'z ichiga olgan

29-bobi aynan qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish yuzasidan ish yuritishga bag'ishlangan. Mazkur bob qoidalarini asosida har bir sudning hujjati – bu ajrim yoki hal qiluv qarori, apellatsiya va kassatsiya instansiyasi sudining qarorlari bo'lishidan qat'iy nazar qonuniy kuchga kirganidan so'ng qayta ko'rilishini anglatadi. Shundan kelib chiqib, ma'muriy sudlar tizimida ham bu institut muhim ahamiyat kasb etadi. Sudning ko'zlangan maqsadga erishishi eng avvalo, jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquq hamda manfaatlarini sud tartibida himoya qilish, qolaver-

sa, konstitutsiyaviy mezonni amalga oshirishning samaradorligini ta'minlashga imkon yaratadi.

Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning 267-moddasiga ko'ra, ma'muriy sud avval o'zi tomonidan qabul qilingan sud hujjati qonuniy kuchga kirganidan so'ng (qoida tariqasida sud hujjatlarini qabul qilingan vaqtdan boshlab bir oylik muddatda qonuniy kuchga kiradi) qayta ko'rishini mumkin bo'ladi. Biroq buni avval ko'rilgan ishni qayta ko'rish, deb tushunmaslik kerak. Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatini yangi ochilgan holatlar yuzasidan qayta ko'rish boshqa asoslar, boshqa dalillar va boshqa talablar asosida ishni yangidan ko'rib chiqish hisoblanadi. Bunda sud tomonidan amalga oshiriladigan protsessual tartiblar va barcha munosabatlar qaytadan hisoblanadi.

Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar yuzasidan qayta ko'rish birinchi instansiya

sudi, ya'ni tumanlararo ma'muriy sudlar, viloyatlar, Toshkent shahar va Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudi tomonidan qabul qilingan, qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori, ajrim yangi ochilgan holatlar bo'yicha shu hal qiluv qarorini, ajrimni qabul qilingan sud tomonidan qayta ko'riladi. Shuningdek, yangi ochilgan holatlar bo'yicha apellatsiya yoki kassatsiya instansiyasining sud hujjati o'zgartirilgan yoki yangi sud hujjati qabul qilingan qarorlari va ajrimlarini qayta ko'rish sud hujjati o'zgartirilgan yoki yangi sud hujjati qabul qilingan instansiya tomonidan amalga oshiriladi.

Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish to'g'risidagi ariza u sudga kelib tushgan kundan e'tiboran bir oydan oshmagan muddatda, ishda ishtirok etuvchi shaxslar xabardor qilingan holda sud majlisida ko'rib chiqiladi.

Zafar TO'XTAYEV,
Sudyalar oliy maktabi tinglovchisi

Fuqarolik kodeksining 97-moddasiga asosan ushbu kodeks va boshqa qonunlarda belgilangan hollarda intellektual faoliyatning aniq ifoda etilgan natijalari hamda yuridik shaxsning bu natijalarga tenglashtirilgan o'ziga xos vositalari, ana shu ishlar yoki xizmatlarni ado etayotgan jismoniy yoki yuridik shaxsning mahsulotlari (firma nomi, tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi va h.k.)ga nisbatan fuqaroning yoki yuridik shaxsning mutlaq huquqi e'tirof etiladi. Mutlaq huquq obyekti bo'lgan intellektual faoliyat natijalari va o'ziga xos vositalaridan uchinchi shaxslar huquq egasining ruxsati bilan qayta foydalanishlari mumkinligi belgilangan.

Shuningdek, ushbu kodeksning 1107-moddasida tovar belgisidan qonunga xilof ravishda foydalanayotgan shaxs qoidabuzarlikni to'xtatishi va tovar belgisining egasiga yetkazilgan zararni to'lashi shart.


Tovar belgisidan qonunga xilof ravishda foydalanayotgan shaxs tayyorlab qo'yilgan tovar belgisi tasvirlarini yo'q qilishi, qonunga xilof ravishda foydalanayotgan tovar belgisini yoki adashtirib yuborish darajasida unga o'xshash bo'lgan belgini tovardan yoki uning idishi va o'rovidan yo'qotishi kerak.



Ta'kidlash joizki, intellektual mulk obyektlari (tovar belgilari)ni himoya qilishda muammo keltirib chiqarayotgan holat bu – tovar belgisiga nisbatan mutlaq huquqning buzilishi, ya'ni huquq egasining roziligi uchun uchinchi shaxslarning undan foydalanishi tashqi iqtisodiy faoliyat amaliyotida "parallel import" degan atama bo'lib, bu tushuncha ko'plab olimlar va mustaqil ekspertlar o'rtasida munozarali bahslarni keltirib chiqarmoqda.

Hozirga qadar "parallel import" tushunchasiga xalqaro va milliy qonunchilikda ta'rif berilmagan. Lekin xalqaro amaliyot va tajriba, shuning-

Mamlakatimizda intellektual mulk obyektlari va uning bir qismi bo'lmish tovar belgilarini himoya qilish bo'yicha bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ular Fuqarolik kodeksi, "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi qonun va boshqa qonun-osti me'yoriy hujjatlarda o'z aksini topgan.



"PARALLEL IMPORT" muammosi nima?

dek, uning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib unga quyidagicha ta'rif berish mumkin; ya'ni, "Ma'lum bir davlat hududiga tovar belgisini huquq egasining roziligi o'lib kirish, lekin bunda tovar belgisiga bo'lgan talablar buzilmaydi, tovarni aldov yo'li bilan o'xshatib yasash kabi holatlar bundan mustasno (kontrafakt), ya'ni tovar belgisiga bo'lgan huquq egasi tomonidan realizatsiya qilingan tovarlarni boshqa shaxsdan olib uni davlat chegaralari orqali olib o'tib oldisotdi operatsiyalarini amalga oshirish".

Misollarga qaraydigan bo'lsak, bojxona organlari 2017-yil 13-dekabr kuni vakolatli vakilning arizasiga asosan "Bella Group" MChJ tomonidan olib kiritilgan alkogol mahsulotlarini vaqtincha to'xtatib qo'ygan. Mazkur holat yuzasidan "Bella Group" MChJ bojxona organlarining xatti-harakatlaridan norozi bo'lib sud organlariga murojaat qilgan.

2018-yil 19-aprelda Chilonzor tuman ma'muriy ishlar bo'yicha sudi Fuqarolik kodeksining

1107-moddasiga asoslanib, "Bella Group" MChJ intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni buzmagani, ya'ni olib kiritilgan tovarlarda qalbaki lashtirish va tovar belgilarini buzish alomatlarini mavjud emas, deb mas'uliyati cheklangan jamiyat foydasiga qaror qabul qilgan.

Xalqaro tajribaga yuzlanadigan bo'lsak, Xitoy Xalq Respublikasida xalqaro xuquqlarning tugashi tamoyiliga amal qilinib, unga ko'ra huquq egasi mahsulotini har qanday mamlakatda realizatsiya qilganidan so'ng, mahsulotga nisbatan bo'lgan egalik huquqi tugaydi va mahsulotning yangi egasi uni fuqarolik muomalasiga, davlat chegaralari orqali olib o'tishga va boshqa xarakatlarni amalga oshirishga haqli hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqi davlatlarida "parallel import" intellektual mulk egasining huquqlari buzilishi deb qaraladi va bu operatsiyani amalga oshirish taqiqlanadi.

Bojxona Ittifoqi davlatlarida esa "parallel import"ni qonuniylashtirish masalasi dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi 1991-yil Butunjahon intellektual mulk tashkilotiga a'zo bo'ldi. O'tgan bu davrda O'zbekiston bir qator xalqaro

hujjatlarga, jumladan, Sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij Konvensiyasi, Belgilarni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi Madrid bitimiga doir Bayonnoma, Patent kooperatsiyasi to'g'risidagi shartnoma, Tovar belgilariga doir qonunlar to'g'risidagi shartnoma, Patent huquqi to'g'risidagi shartnoma, O'simliklarning yangi navlarini muhofaza qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiya, Xalqaro patent tasnifi to'g'risidagi Strasburg bitimi, Marokash shartnomasi kabi o'ttizdan ortiq nufuzli xalqaro shartnoma va bitimlarga qo'shilib, Butunjahon intellektual mulk tashkilotining faol ishtirokchisiga aylandi. Qolaversa, bugungi kunda respublikamiz dunyoning bir qator davlatlari bilan intellektual mulk muhofazasi sohasida ikki tomonlama samarali hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ygan.

Xalqaro biznes kundan-kunga liberallashtirib borayotgan jahonda, shu jumladan, O'zbekistonda ham ishbiarmon tadbirkorlarga keng imkoniyatlar yaratib berilayotgan bir vaqtda zamon talablariga mos kelmayotgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni qayta ko'rib chiqish hamda tahlil qilish asosida qonunchilikni modernizatsiyalash va takomillashtirish lozim bo'ladi.

Xususan, Fuqarolik kodeksining 1107-moddasi va "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 26-moddasida bevosita tovar belgisining egasi tomonidan yoki uning roziligi bilan fuqarolik muomalasiga qonuniy tarzda kiritilgan tovarlarga nisbatan tovar belgisidan boshqa shaxslarning foydalanishi mazkur tovar belgisiga doir mutlaq huquqning buzilishi bo'lmaydi, deb belgilangan.

Biroq, mazkur normada tovar belgisiga bo'lgan huquq egasining mutlaq huquqlari qaysi holatda buzilmagan deb hisoblanishiga aniqlik kiritib o'tilmagan. Shu bois, xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda qonunning aynan shu qismini to'ldirish hamda fuqarolarga tushunarli tilda yetkazilishi choralarni ko'rish lozim.

Behzod RO'ZIYEV,

Adliya vazirligi intellektual mulkni huquqiy himoya qilish boshqarmasi boshlig'i v.b.

Dilorom ZUFAROVA,

Intellektual mulkni huquqiy himoya qilish boshqarmasi yetakchi maslahatchisi

E'LONLAR

Jizzax viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 26-maydagi 93-um-sonli buyrug'i bilan, Jizzax tumanlararo ma'muriy sudining 2023-yil 25-apreldagi hal qiluv qaroriga asosan, "Kafolat" advokatlar hay'ati advokati Xakimov Jahongir Uralovichga 2022-yil 16-sentabrda berilgan GZ 000172-sonli advokatlik litsenziyaning amal qilishi va advokatlik maqomi 3 (uch) oy muddatga, ya'ni 2023-yil 26-maydan 2023-yil 26-avgustga qadar to'xtatildi.

Jizzax viloyat adliya boshqarmasining

2023-yil 26-maydagi 94-um-sonli buyrug'i asosan, advokat Ochilov Sherzod Yuldashevichga 2019-yil 13-martda berilgan GZ 000116-sonli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi hamda 2019-yil 13-martda berilgan 104-sonli advokatlik guvohnomasining amal qilishi hamda advokat Abulkasimov Mardanga 2018-yil 28-dekabrda berilgan GZ 000048-sonli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi hamda 2018-yil 28-dekabrda berilgan 048-sonli advokatlik


guvohnomasining amal qilishi ularning bergan arizasiga muvofiq tugatildi.

O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi Namangan viloyat hududiy boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasining 2023-yil 10-maydagi 6-sonli qarori asosida adliya boshqarmasining 2023-yil 10-maydagi 116-um-son buyrug'i bilan advokat Tojiboyev Xasanboy Fayzullayevichning advokatlik maqomi tiklandi.

"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi jamoasi markazning Normativ-huquqiy hujjatlarga yuridik ishlov berish bo'limi bosh maslahatchisi Gulnihol Umarovaga otasi **Tolibjon UMAROV**ning vafot etganligi munosabati bilan chuqur hamdardlik bildiradi.

8 ADABIY AYVON

Taniqli tennischi, jahon chempioni Artur Esh qon quyish jarayonida og'ir xastalikni yuqtirib oldi. Uning ahvoli kundan-kun yomonlashardi. Umri-ning so'nggi kunlarini yashayotgan Artur muxlislaridan ko'plab mak-tublar olardi.



Hayotingdan NOLIMA!

Ulardan birida bunday so'zlar bor edi: "Parvardigor bunday dard uchun nega boshqani emas, sizni tanladi?" Artur esa muxlisiga bunday javob yozdi: "Butun dunyoda har yili ellik million bola tennis o'ynashni bosh-laydi, shundan besh millioni o'rgana-di. Besh yuz ming nafari professional darajasiga chiqadi. Besh mingi katta musobaqalarda qatnashib, ellik na-fari "Uimblon" gacha keladi. To'rttasi yarim finalda, ikkitasi finalda ishtirok etish huquqini qo'lga kiritadi.

Qo'lmda chempionlik kubogini tutib, quvonib turarkanman, biror mar-ta: "Nega men?" demadim. Endi xasta-likka chalinib, azob chekayotganimda: Nega men, desam, to'g'ri bo'ladimi?.. Har qanday holatni ham rozilik bilan qabul qilish mo'minlik belgisi, mo'min-ning sifati. Zero, bunda Alloh taolo roziligi bor. Ilohiy rizoga erishish esa mu-sulmon odamning eng ulug' orzusi. Ko'pchilgimizga, biror ne'mat berilsa, o'zimni loyiq deb bilganimiz uchun ham "Nega menga?" degan savol xayolimizga kelmaydi. Ammo qiyin-chilik yetsa, tilimizga chiqarmasak-da, dilimizdan: "Nega mashaqqatlarga faqat men duchor bo'larkanman?" degan savol o'tishi bor gap. Shunday paytlar o'zimizdan yuqori emas, past-dagilarga qarash haqidagi muborak tavsiyani unutilib qo'yamiz... Yana bir haqiqat bor, banda ilohiy rizoga faqat amallari bilan yetisholmaydi. Balki oz bo'lsa ham, amalning ixlos ila bajaril-gani, o'sha amal egasining har qan-day holatda qazoyi qadarga roziligi saodatga yetishish asosidir!

Inglizchadan O'zDJTU Media va kommunikatsiya fakulteti talabasi Nilufar QOBILOVA tarjimai



Bir yigit umrini faqat keksa otasining xizmatida o'tka-zar edi. Alloh taolo uning otasiga qilayotgan xizma-ti sabab rizqiga baraka berar, ro'zg'ori but edi. Ayoli-ning: "Biror bir kasb-hunar o'rganing, otangizdan so'ng nima qilasiz?" degan savoliga doim: "Men kasb bilan mashg'ul bo'lib qolsam, otam qarovsiz qoladi-ku", deya javob qaytarar edi.

Yigit uzoq yillar otasining xizmatini qilib, duosini oldi. Otasi qazo qildi. Tirikchiligi uchun kelayotgan rizqi ham to'xtadi.

Yigit mardikorchilik qilish niyatida shaharga tush-di. Aksiga olib uni hech kim yumushga olib ketmadi. Uyiga yegulik topa olmaganidan afsuslanib, kuta-kuta g'amgin holda bir daraxt soyasida uyquga ketdi. Tushi-ga otasi kirdi.

– O'g'lim, nega g'amginsan? – dedi ota. O'g'il ah-volini aytdi.

– O'g'lim, xafa bo'lma, yotgan joyimning bosh tara-figa yuz dirham tillo tanga ko'mib qo'rganman, uni olib tirikchiligi uchun ishlat. Lekin bu pullarning barakasi yo'q... – dedi ota.

O'g'il uyiga bordi. Ayoling: "Yeguligimiz uchun biror nima topdingizmi?" degan savoliga: "Yo'q, bugun topa olmadim, xudo xohlasa, ertaga topib kelaman", deb javob berdi. Ertasi kuni u yana shaharga yo'l oldi. Biroq yana yumush topa ol-madi. G'amga botgancha daraxt soyasida yana ko'zi ilindi. Otasi yana tushiga kirdi.

– O'g'lim, nega yuz dirhamni olmading? – dedi ota.

– Otajon, o'zingiz u pullarning barakasi yo'q, – dedingiz-ku. Barakasi bo'lmasa, olib nima qilaman? – dedi.

Ota yana:

– Yotgan joyimning past tarafini qara, o'sha yerda o'n dirham bor, shuni ishlat. Lekin bu aqchani ham barakasi yo'q, – dedi.

O'g'il: "Otam barakasi yo'q, degan dirhamlarni olmayman", deb pulga qo'l tekkizmadi. Uchinchi kun yana shu hol takror-landi. Ota o'g'ilidan sababini so'radi. O'g'il barakasi bo'lma-gani uchun olmaganini aytdi. Shunda otasi hovlidagi mevali daraxt tagiga bir dirham ko'mganini va bu pulning barakasi borligini aytdi. O'g'il daraxt tagini kovlab, bir dirhamni oldi. Bo-zorga bordi. Bozorni rosa aylandi. Bir dona baliqdan boshqa hech narsa sotib ololmadi. Uyiga kelib baliqni tozalab, qornini yorsa, ichidan ikki dona qimmatbaho dur chiqdi. U durning bir donasini sotish uchun bozorga chiqdi. Ittifoqo, bozorda vazir aylanib yurgan ekan. U durni to'rt xum tilloga sotib oldi. Vazir shohga qimmatbaho durni ko'rsatdi. Shoh uni sotgan kishini topib, huzuriga olib kelishini aytdi. U kelgach, boshidan o'tgan voqealarni shohga hikoya qilib berdi. Shunda dono shoh:

– Sen otangni xizmatini qilib, duosini olgan odam ekansan. Bugundan e'tiboran, mening vazirim bo'lasan, – dedi.

Qissadan hissa shuki, ota-onaning xizmatini qilib, duosini olgan farzand hech qachon kam bo'lmaydi.

Mohigul NAZAROVA

Turli istirohat bog'larida, ko'chalarda, ko'p qavatli uy may-donchalarida ko'plab chiqindi tashlaydigan idishlar bo'lishiga qaramay, ko'pchilik qo'llaridagi sellofan paketlarini, baktash-kalarni, ovqat qoldiqlarini loqaydlik bilan ko'chalarga tashlab ketishyapti. Bunday xunuk manzara esa afsuski, oddiy bir ho-latga aylanib qoldi.



Ko'p qavatli uylarning kiraverish qismida "Axlat – chiqindilarini bu yer-da qoldirmang, tutib olsam..." degan jumalarga ham ko'zimiz tushmoqda. Bu holat haqiqatan ham achinarli. Chunki bu mavzuda qanchadan-qancha targ'ibot ishlari olib borilmoq-da, chora-tadbirlar belgilanayapti. Afsuski, bularning barchasi qog'oz-da qolib ketyapti. Amaliy ishga o'tish esa... sezilmayapti. Jarima miqdorla-rini keskin oshirish kerak, chiqindi qu-tilarini ikki yoki uch barobarga ko'pay-tirish maqsadga muvofiq bo'lardi.

To'g'ri, "Ma'muriy javobgarlik to'g'ri-sidagi" kodeksning 82, 91, 123-mod-dalarida chiqindini tashlash bo'yicha normalar belgilab qo'yilgan. 82-mod-daga binoan, muhofaza qilayotgan tabiiy hudud rejimini buzsa, hozirgi kunda hisoblaganda, 1 million 115 ming so'm jarimaga tortiladi.

Fuqaro mazkur kodeksning 91-moddasida ko'rsatilgandek bel-gilanmagan joyda chiqindi qoldi-radigan bo'lsa, 669 ming-so'm jarima to'laydi. Mashinalardan ulqo-tiradigan bo'lsa, 123-moddaga asosan

223 ming so'm jarimaga tortiladi. Ammo qoidabuzarlar bu jarimalarni mensimayapti.

Boshqa mamlatlarda, masalan, Nyu-Yorkda chiqindi tashlash keskin qoralanadi. Bir marta chiqindi tash-lash bilan bog'liq qoidabuzarlikni sodir qilgan kishi 350 dollargacha jarimaga va hatto jinoyi javobgarlik-ka ham tortilishi belgilab qo'yilgan.

Fransiyada ham chiqindi tash-laganlar agar rasmiylar tomonidan qo'lga olinsa, huquqbuzarlikning og'irligiga va sodir etgan jinoyatining turiga qarab jarima miqdori belgi-lanadi. Jarimalar miqdori eng ka-mida 68 dollardan, 450 dollargacha etib belgilangan. Yaponiyaliklar esa, ko'chalardagi turli xil baktashkalarni yig'ib, ularning 70 foizini qayta ish-lashga topshirishadi.

Biz esa qo'limizdagi bo'shab qol-gan plastmassa idishlarni, pista po'choqlarini, qog'oz va sigare-ta qoldiqlarini to'g'ri kelgan joyga ulqotirishdan uyalmayapmiz. Nega tabiatni sevmaymiz? Axir, tabiat bizning umumiy uyimiz, Vatani-mizning parchasi ekanligini unutish-ga haqqimiz bormi? Tabiatni sevib yashashga o'rganaylik!

Malikadiana ISROFILOVA,
O'zDJTU universiteti talabasi

**INSON
va qonun**

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI

"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi nashri
info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
ro'yxatga olingan



**Bosh
muharir**

Asiddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov
Furqat Tojiyev
Hayotjon Klichev
Sevara O'rinboeva
Yorbek Iskandarov
Dilfuza Ergasheva

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqiriz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Navbatchi
Xurshid Sultonov
Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiyboev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter ba-zasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasi-da chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy

Tiraji – 3850
Buyurtma – 1685

Topshirish vaqti – 19:00
Topshirildi – 20:00

MANZILIMIZ:

100115, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18
Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5